



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

Ergashova Marinaning

*“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun*

*“Hozirgi zamon ingliz tilida ayol va erkak ismlari
qatnashgan frazeologik birlıklarning qo'llanilishi”
mavzusida yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : o`q. Nekboyeva R.

“Himoyaga tavsiya etildi”
Roman-german filologiyasi fakulteti
dekani _____ dots. D. Jo`rayev
“_____” 2013 yil

Qarshi - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha.....	7
I.1. So'zlar bog'lanmasi va uning turlari.....	12
I.2. Ibora va uning ma'no tarkibi.....	14
I.2.1. Iboraning shakl va ma'no jihatiga ko'ra turlari.....	15
I.2.2. Iboraning so'z, gap va so'z birikmasiga munosabati.....	25
I.3. Frazeologizmlarning morfologik xususiyati.....	26
II BOB	
2.1.Ingliz tili frazeologizmlari, ingliz tili frazeologik birlkklarini o'zbek auditoriyasida o'qitishdagi va o'rganishdagi ba'zi qiyinchiliklari	29
2.2.Ingliz tilida turg'un birikmalarning kognitiv aspekti haqida, zoonomik komponentli frazeologik birliklarning antonimik qatorlarida madaniyatlararo muloqot.....	
2.3 Ingliz tili frazeologiyasida erkak jinsini anglatuvchi gender xususiyatlar.....	
2.4 Ingliz tili frazeologiyasida erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birliklar	
Xulosa.....	54
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	
Ilmiy adabiyotlar.....	
Badiiy adabiyotlar.....	

Kirish.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va yuqori malakali intellektual barkamol avlodni tarbiyalashda davlat siyosatining o’rin va rolini xalqaro jamoatchilikning o’rganishi va tanishishini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan “Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili” mavzusidagi Xalqaro konferentsiyasining ochilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov so’zlagan nutqlarida ta’kidlaganlaridek, “... oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O’zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o’rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o’sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo’lib voyaga yetishiga bog’liqdir”¹¹.

Barkamol avlod tarbiyasi, ularning intellektual salohiyatini yuklastirish vazifasining, so’zsiz, ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog’liqdir. Bu, albatta, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo’lgan tilshunodlikka ham oiddir. Mamlakatimizda keyingi yillarida xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining tizimi, muloqot qoidalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zotan, zamnaviy tilshunoslik uchun lisoniy hodisalarni sintetik yondashuv asosida, ularning ko’p jihatli xususiyatlarini tizimli ravishda, nutqiy muloqot sharoitida bevosita va bilvosita namoyon bo’lishini ta’minlovchi asosiy omillarini inobatga olgan holda tadqiq qilish amaliyoti keng o’rin egallamoqda. Til birliklarining bunday ko’pqamrovli o’rganilishi ularning tub mohiyatini batafsil aniqlash bilan bir qatorda, har bir hodisaning alohida jihatlari, tizimda tutgan o’ziga xos o’rnini belgilash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o’qitishda so’zlar, so’z birikmalarini o’z ichiga oluvchi frazeologik birikmalarini ona tilidagi frazeologik birliklar bilan taqqoslaganda ikki tilning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan qiyinchiliklar namoyon bo’ladi. O’rgatilayotgan tildagi mavjud frazeologik birikmalarning, ayniqsa erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birikmalarning ona tiliga o’girish yoki shu tilda unga mos keluvchi muqobillarini topib, til o’rgatuvchilarga shu tillar orasidagi umumiylilik hamda tafovutlarni anglatish muhim ahamiyatga egadir.

¹¹ Karimov I.A.Bilimli va intellektual barkamol ablodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili. –T., ”Xalq so’zi”, 18.02.2012.

Hozirgacha frazeologizmlarning semantik tabiatи, semantik tasnifi, shakл va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, uslubiy xususiyatlari ko'pgina ilmiy gulanishlar manbai bo'lgan. Lekin frazeologizmlar tilshinoslikda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatic xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Hozirgi zamон ingliz tilida "ayol va erkak ismlari qatnashgan frazeologik birliklar"ning salmog'i ancha katta. Lekin ular shu kungacha ilmiy tadqiqotchilar tomonidan juda kam darajada o'rganib chiqilgan. Shu sabli ayol va erkak ismlari qatnashgan frazeologik birliklari ishtirokida yasalgan frazeologik iboralarning ma'no va mazmun jihatini o'rganish mavzuning dolzarbligidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Frazeologik birliklar juda qadimdan insoniyatning jozibali va obrazli nutq vositasi sifatida qo'llanib kelinayotgan bo'lsa ham, uni ilmiy o'rganish yaqindan boshlangan. Frazeologiya atamasi dastavval adabiyotshunoslikda paydo bo'lib, bir asarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolganda qo'llangan. 1558- yili ingiliz adabiyotshunos olimi Neandr badiiy asarni tarjima qilar ekan, shu terminni qo'llashga majbur bo'lgan. Keyinchalik tilshunoslikda ham yuqoridagi ehtiyoj tufayli frazeologizm keng o'rganila boshlandi.

Bu borada g'arb tilshunoslari O.Yespersen, Ch.Friz, Ch.Xokket, X.Marchand, S.P.Logan taniqli rus olimlari N.N.Amosova, I.V.Arnold, O.S.Ahmanova, V.V.Vinogradov, B.A.Ilish, A.V.Kunin, V.P.Yartseva, R.S.Gunzburg, S.S.Xidikel, A.I.Smirnitskiy, o'zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, F.A.Abdullayev, Yu.D.Pinxsarov, M.Irisqulov, S.Usmonov, E.A.Mamatov, B.Mengliyev ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

Hozirgi zamон ingliz tilidagi erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birliklarining qo'llanilishini nazariy va amaliy hamda ma'no mazmun jihatdan o'rganib chiqish.

- Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga doir ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, tahlil qilish va va ularga munosabat bildirish;
- mavjud nuqtai-nazarlargaga ijodiy yondashib, ularni guruhlarga bo'lish;
- gap qurilishida frazalarning qaysi ma'nolarda ishlataliganligini aniqlash;
- zamonaviy ingliz va amerikalik yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan misollardan foydalanib " erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birliklar" yordamida yasalgan iboralarni grammatic xususiyatlarini o'rganish;

--frazeologik iboraning so'z, gap va so'z birikmalaridan farqli tomonlarini ko'rsatib berish bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalaridir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti.

Badiiy matnlardan to'plangan erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birliklar, shuningdek, A.V.Kuninning "English-Russian Phraseological Dictionary" lug'atidagi materiallardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati.

Shu kungacha "Hozirgi zamon ingliz tilida erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birliklar" mavzusida juda kam ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Erkak va ayol ismlari qatnashgan frazeologik birliklarni chuqr o'rganish va shu kabi frazeologik birliklarning yuzdan ortiq frazeologik birliklar tarkibida kelib, nutqda emotsiyal ekspressiv vosita sifatida qo'llanishini yoritib berish BMIning ilmiyligidir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy nazariy xulosalari ingliz tilining amaliy grammatika, leksikologiya, stilistika fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, ulardan shu mavzuda amaliy mashg'ulotlar o'tishda va ilmiy maqolalar uozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan ilmiy, badiiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi 55 bet.

I BOB

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA UMUMIY TUCHUNCHА

Hozirgi zamon ingliz tilshunosligida frazeologiyaning o'rni, uning predmeti, tarixi, hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichlari to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Avvalo frazeologik birlik nima? degan savolga javob berishga harakat qilamiz. Tarkibiy tuzilishi va ma'no jihatdan ajralmas birikmalar frazeologik birliklar deyiladi. Frazeologik birliklar nutqda erkin holda hosil bo'lmaydi, ular tilga tayyor holda kirib keladi. Frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi leksik komponentlar turg'un bo'lib, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi. Frazeologik birliklarning komponentlarini o'mini almashtirish yoki boshqa so'z qo'yib o'zgartirish mumkin emas.

Mashhur lingvist, frazeologiya sohasining bilimdoni professor A. V. Kunin frazeologiya leksikologiyaning bir qismi emas, balki mustaqil lingvistik fan bo'lishi kerak deb hisoblaydi². Uning frazeologik birliklar klassifikatsiyasi ularni nutqda bajaradigan funksiyasiga asoslangan. Bular: nominativ, kommunikativ va undov funksiyalaridir.

Taniqli tilshunos V. V. Vinogradov frazeologik birliklarni ma'nosiga ko'ra uch guruhga bo'ladi: frazeologik qo'shilmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalar³.

Professor N. Amosova frazeologik birliklarning ikki kategoriyasini havola etadi. Birinchi kategoriya kiruvchi frazeologik birliklarda yaxlit ma'no bitta komponentning ma'nosiga bog'liq bo'ladi.

Masalan: dutch courage- gollandcha mardlik, ya'ni ichkilik ichib mard bo'lib ketish; to bring to book- adolatli yechimga kelish; small years- bolalik yillari.

Ikkinchi kategoriyada frazeologik birliklarning barcha komponentlari o'zaro umumiy ma'no hosil qiladi. Bunday frazeologik birliklarni idiomalar deb ataladi. Masalan: to toe the line-ishni qoyillatmoq, a free lance- mustaqil ish yurituvchi shaxs.

² А.В.Кунин. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1986.

³ В.В.Виноградов. Фразеология современного английского языка. М., 1972.

Agar bir komponentning ma’nosи ikkinchisiniкiga qat’iy bog’liq bo’lsa, u bunday birliklarni frazemalar deb atadi.

Professor A.I. Smirnitskiyning ta’kidlashicha frazeologik birliklar o’ziga xos so’zlar guruhi bo’lib, ular yagona, semantik barqaror birliklardir. Ular gapda bitta funksiyada keladi va bir so’z turkumiga mansub bo’ladi. Uning fikrlarini aynan keltirib o’tmoqchimiz:

“A phraseological unit may be defined as specific word groups functioning as a word equivalent. The phraseological units are single semantically inseparable units. They are used in one function in the sentence and belong to one part of speech⁴”.

Professor A. Kunin Smirnitskiyning bu fikrini ma’qullamaydi. U frazeologik birliklarning komponentlari alohida ma’noga ega bo’lib, gapda bitta funksiyada qo’llanila olmaydi deydi. Masalan: He gets rid of it.

Bu hodisa tilshunoslar tomonidan o’z yechimini kutayotgan masaladir.

Frazeologik birliklar semantik va grammatic jihatdan barqaror, bo’linmas ekanliklari tufayli ularni 3 guruhga ajratish mumkin: otli (heavy father), fe’lli (take place, break the news) va ravishli frazeologik birliklar (in the long run, high and low).

Frazeologik birliklar orasida buyruqmonand frazeologik birliklar ham mavjud:

God bless his soul!, Curse her!, Damn him!, Stay well!, Go well!, Heaven forbid!, Lord love us!, va hokazolar.

Bunday frazeologik birliklar asosan kishining emotsiонаl va ekspressiv holatini ifodalash uchun ishlataladi.

Frazeologizmlar- tilning emotsiонаl-ekspressiv vositalari.

Tilning lug’at tarkibida faqat so’zlar emas, balki turg’un bo’lib qolgan so’z birikmali ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo’lgan turg’un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrasis – ”ibora”, logos – ”so’z” ma’nosida) deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo’limi sifatida qaraladi.

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so’zlarning turg’unbirikmasidir. Masalan, boshiga ko’tarmoq, tilini bir qarich qilmoq, kovushini to’grilamoq, juftakni rostlamoq, olam guliton , katta og’iz kabi.

⁴ А.И.Смирницкий. Лексикология английского языка. М., 1956.

Frazeologizmlarning tarkibida necha so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiyligi bilan birlashadi va emotsiyal – ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llaniladi.

Hushyor boq, to fonyi umr kechadi,
Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.
Biri qora hasad yo g'araz toshi,
Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi.
Ular sabr kosang to'ldirmoq bo'lar,
Ular umr gulin so'ldirmoq bo'lar.

(A.Oripov)

Frazeologizmlar uch turli bo'ladi: frazeologik qorishmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar. Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi: hordiq (to'g'ri ma'noda) chiqarmoq (ko'chma ma'noda), so'zida (to'g'ri ma'noda) turmoq (ko'chma ma'noda) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatic jihatini birikib umumiyligi ko'chma ma'nodo beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: ko'kka ko'tarmoq (maqtamoq), eti suyakka yopishgan (ozg'in), yuragi orqasiga tortmoq (qo'rermoq) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: tegirmonga tushsa butun chiqmoq, temirni qizig'ida bosmoq, oyog'ini tirab olmoq kabi.

Frazeologik qo'shilma yoki frazeologik butunliklar so'zlarni o'zaro biriktirish yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin emas. Shuningdek bag'ri tosh va mehri tosh iboralari frazeologik sinonimlar bo'lib, ularga o'z ma'nosini bilan qarama-qarshi bo'lgan ko'ngli bo'sh va mehri bo'sh iboralari frazeologik antonimlardir. Ba'zan frazeologizmlar shaklan to'g'ri kelib, turli ma'nolarni ifodalaydi. Bunday holat frazeologik omonimiya deyiladi: javobini bermoq – 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo'shatmoq kabi.

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so'z birikmalari asosida hosil bo'ladi. Biroq ular ko'chma ma'no kasb etib, komponentlari o'zaro birikib, yaxlit holda qo'llanilishi natijasida singib ketadi. Masalan, joyiga keltirmoq, o'rniga qo'yimoq iboralari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin, ular ko'chma ma'noda qo'llanib, "ishni (vazifani) yaxshi bajarmoq" ma'nolariga ega bo'lgan. Frazeologizmlarning ko'chma ma'nolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda o'sha xalqning ba'zi urf-odatlarini aks

ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so'zma-so'z ag'darmay to'g'ri keluvchi iboralardan foydalilanadi.

Frazeologizmlar grammatik (sintaktik va morfologik) tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarining sintaktik birikuvi ham turlicha bo'ladi: olam guliston, ta'bi xira, qorasi o'chmoq, yuragi qora, o'ziga kelmoq, o'rtaqa tashlamoq, katta gapirmoq kabilar.

Tarkibida taqlid so'zlar bo'lgan frazeologizmlar alohida ko'chma ma'nolari bilan ajralib turadi: yuragi duk-duk qilmoq, piq-piq qilmoq, taq-taq- etmoq kabi.

Ba'zi frazeologizmlarning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar ham ishtirok etishi mumkin: infarkt qilmoq, doklad o'qimoq, gapning indollosini aytmoq kabi.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarining o'zaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlanadi.

1.1. So'zlar bog'lanmasi va uning turlari.

Frazeologiya tilshunoslik predmetlaridan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Frazeologiya ma'lum bir tildagi barqaror so'zlar bog'lanmasi bo'lmish frazeologizmlar to'g'risida bahs etadi. Frazeologizmlar, uning xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishdan oldin so'z va so'zlar bog'lanmasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish kerak.

So'zlar bog'lanmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z (o'zak) ning o'zaro aloqaga kirishidir. Bunda so'zlar semantik va grammatic jihatdan bog'langan bo'ladi. So'zlar bog'lanmasidan ma'lum tushuncha yo tasavvur (*ko'zoynak, qishloq xo'jaligi*) yoki murakkab tuchuncha (*shahar aholisi, og'ir yigit*) yoxud nisbiy tugal fikr (*havo issiq, o'pkasi to'ldi*) anglashiladi.

Shunday qilib, gapda ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z semantik va grammatic tomondan aloqaga kirib, ma'lum tuchuncha, tasavvurni yoki nisbiy tugal fikrni bildiradigan til birligiga **so'zlar bog'lanmasi** deyiladi.

So'zlar bog'lanmasi tarkibidagi so'zlarning (elementlarning) o'zaro aloqaga kirishi, aloqaga kirgandan keyin butunligicha yo ayrim holda anglatadigan ma'nosi jihatdan uch asosiy guruhga bo'linadi: a) qo'shma so'zlar bog'lanmasi; b) erkin so'zlar bog'lanmasi; d) barqaror so'zlar bog'lanmasi.

Endi so'zlar bog'lanmasining har bir turini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Qo'shma so'zlar bog'lanmasi⁵. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi yoki leksik bog'lanma ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan tarkib topgan bo'ladi. Bunday bog'lanmadagi so'zlar (o'zaklar) o'zaro aloqaga kirkach, ulardan yangi bir ma'no anglashiladi. Albatta, bular ko'chma ma'nolar bo'lmay, balki to'g'ri ma'nodir. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi bir tuchuncha yoki bir tasavvurni ifodalab, bir bosh urg'u bilan aytildi va gapda butunligicha bir vazifani bajarib keladi. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi shaklan uch turlidir:

- a) o'zaklari birga keladigan qo'shma so'zlar bog'lanmasi: *Beshyog'och, Qiziltepa, gulihamishabahor, Shofayziquloq* kabilar;
- b) o'zaklari ayrim keladigan qo'shma so'zlar bog'lanmasi: *qishloq xo'jaligi, aloqa bo'limi, O'rta Osiyo, soda gap* kabilar;
- c) o'zaklari qisqartirilgan qo'shma so'zlar bog'lanmasi: *BMT, GES, TerDU, ToshDU* kabilar.

Shunday qilib, ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z (o'zak) bir bo'lib, ma'lum tuchuncha yo tasavvurni ifodalab, bir ma'no anglatsa, bir bosh urg'u bilan aytilib, gapda butunligicha bir vazifani bajarsa, bunday bog'lanma **qo'shma so'zlar bog'lanmasi** sanaladi.

⁵ Bu o'rinda teng aloqali so'zlar bog'lanmasi, uning ikki turi: juft so'zlar bog'lanmasi (ota-on, shahar va qishloq kabi), takroriy so'zlar bog'lanmasi (asta-asta, katta-katta kabi) to'g'risida maxsus to'xtamadik.

Erkin so'z bog'lanmasi. Erkin so'z bog'lanmasida ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z semantik va grammatick tomondan o'zaro aloqaga kirgan bo'ladi. Bunday bog'lanmalarda har bir element o'z leksik ma'nosini saqlab, gapda ma'lum vazifani bajaradi. Erkin bog'lanmalar murakkab tuchuncha yo tasavvurni yoki nisbiy tugal fikrni anglatib keladi.

Masalan, *Yuqori hosilni Anorxon zvenosi berdi*. (I.Rahim). Bu gapda to'rtta erkin so'z birikmasi bor:

- a) *yuqori hosil* – so'z birikmasi;
- b) *hosilni berdi* – so'z birikmasi;
- v) *Anorxon zvenosi* – so'z birikmasi;
- g) *zvenosi berdi* – gap.

Demak, gapda ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan tarkib topgan, semantik va grammatick tomondan aloqaga kirgan, ma'lum bir murakkab tuchuncha yo tasavvurni yoki nisbiy tugal fikrni ifodalagan bog'lama **erkin so'zlar bog'lanmasi** deyiladi.

Yuqorida keltirilgan misollar va ta'rifdan ko'rinishotirki, erkin so'zlar bog'lanmasi murakkab tuchuncha yo nisbiy tugal fikrni ifodalashi, umuman, qanday vazifani bajarishi jihatdan ikkiga bo'linadi:

- a) *so'z birikmasi*, b) *gap*.

1.2. Ibora va uning ma'no tarkibi.

Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi so'z ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Ko'pincha ma'nosи bir so'zga teng va ko'chma bo'ladi. So'zning bunday barqaror bog'lanmasi ibora (frazeologik birlik)dir.

Tilshunoslikning iborani o'rganuvchi maxsus bo`limi **frazeologiya** deyiladi.

Qismlari qat'iy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, ko'chma ma'no anglatib, gapda butunligicha bir bo'lak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma **frazeologik birikma (ibora)** deyiladi: *Eshon mayizning tagiga turna ekibdi* ("tugatmoq") – *Boshi osmonga yetdi* ("xursand").

So'z ham, ibora ham lug`aviy birlik sanaladi. Tilning lug`at boyligini tashkil etadi. Ibora so'z birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil bo`lmaydi, balki xuddi so'z kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

Ibora ham, xuddi so'z kabi, shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomoni tovushdan iborat bo`lsa, iboraning shakliy tomonini so'z tashkil etadi: rahmdil

$(r+a+h+m+d+i+l) - ko`ngli bo`sh (ko`ngli+bo`sh) xursand (x+u+r+s+a+n+d) - boshi osmonga yetdi (boshi+osmonga+yetdi)$.

Ibora tarkibidagi so`z mustaqil ma'noga ega emas. Ibora so`z yig`indisining ko`chma ma'nosiga asoslanadi. Shuning uchun uning tarkibidagi bir necha so`z bir butunligicha gap bo`lagi vazifasida keladi: *Ko`z ochib-yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo`ldi.* (A.Qah.) *Ko`z ochib-yumguncha* iborasining ma'nosи “juda tez” va gapdagi vazifasi – payt holi.

Lug`aviy birlik sifatida ibora so`zga xos qator xususiyatga ega.

Iboraning ma'no tarkibi. Iboraning ma'no tarkibi frazeologik va qo'shimcha ma'nodan iborat.

Frazeologik ma'no. Tilda ham shakl va ma'no bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi — tovush — ko'zda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb yuritiladi. Tovush yozuvda harf bilan ko'rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farq qilinadi, bulardan tom ma'nodagi shakl — birinchisi.

Yolg'iz shaklning o'zi hali til birligi emas. Til birligi bo'lism uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no birkirilgan bo'lishi lozim. Bunday ma'no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma'noni biror shakl nutqning o'zida (nutq bosqichida) kashf etmaydi, balki biror shaklga bunday ma'no tilda (til bosqichida) birkirilgan bo'ladi, nutq shuni qalqitib beradi,

Ma'lum shaklga ma'lum bir ma'noning birkirilishi affikslarga ham xos. Masalan, **boradi** so'zi tarkibidagi **-di** affiksiga «III shaxs» ma'nosи, **-a** affiksiga «hozirgi-kelasi zamon» ma'nosи birkirilgan. Bunday affikslarning ma'nosiga grammatik ma'no deyiladi. Shu so'z tarkibidagi **bor** – qismidan esa tamoman boshqa tip ma'no anglashiladi. Bu qism «makondagi yaqin nuqtadan uzoqdagi nuqtaga harakatlanib yo'nalish» ma'nosini anglatadi. Biror predmetni, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi bunday ma'noga leksik ma'no deyiladi. Leksik ma'noni anglatuvchi birlikka leksema deyiladi. Grammatik ma'noni ifodalovchi birlikka morfema deyiladi. So'z ayni vaqtda ham leksik, ham grammatik ma'noga ega bo'ladi, demak, u odatda leksema bilan morfemadan tuziladi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb tovush tizimi ko'rsatilsa, murakkab (qo'shma) morfemada uni tashkil toptirgan morfemalar ko'zda tutiladi (**-chilik – chi + -lik kabi**). Shuningdek, tub leksemada uning ifoda plani deb tovush tizimiga aytilsa, yasama leksemada uning tarkibidagi leksema va morfemalar ko'zda tutiladi: talabchanlik—(talab + chan +)+lik kabi. Ko'rindiki, tub til birliklarida (morfemalarda, leksemalarda) ifoda plani deb tilning material birliklari — tovush — olinadi; tarkibli (murakkab, yasama) til birliklarida esa ular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi.

Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zdan (leksemadan) tarkib topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar (leksemalar), shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi.

Tarkibli morfemaning, leksemaning ma'nosi odatda uni tashkil qiluvchi, til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi.

Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi. Xususiy (qismlarga xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni to'g'ridan tug'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi boglanish shartlilik kashf etadi. Bu yerda bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *til tegizmoq* iborasi «sha'niga nomunosib, nohaq gap aytmoq» ma'nosini anglatadi. Bu ma'no to'g'ridan-to'g'ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Masalan, *Batareyaga til tegizsam, hech toki yo'q ekan* gapida erkin birikma ishlatilgan. Bunday ishlatishda *til* va *tegizmoq* so'zlari ma'no mustaqillagini saqlab bog'lanadi, ma'noda yaxlitlanish yuz bermaydi. *Kechagi majlisda menga ham til tegizibdi* gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas, balki ibora qatnashmoqda. Chunki bu gapda *til* va *tegizmoq* so'zlaridan emas, balki *til* tegizmoq iborasidan foydalanilgan. Endi *til* va *tegizmoq* so'zlariga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi haqida emas, balki ustama ko'chma ma'no haqida gapirish lozim. Bunday ma'no obrazga suyanib yuzaga keladi: tegizish harakatidan kelib chiqsak, *til* deganda fiziologik organni tushunish kerak, ammo bu o'rinda *til* so'zining boshqa ma'nosi («nutq») qatnashadi, tegizmoq fe'lining ma'nosi shu «nutq» ma'nosini «gap, so'z» ma'nosini darajasiga konkretlashtiradi (tegizish harakati uzoq davom e'tmaydi). Ayni vaqtda biror so'z, gapni beg'araz aytish emas, «tegizib» aytish ko'zda tutiladi, shundan aytildigan so'z-gapning «nomaqbul» bo'lishi kelib chiqadi va boshqalar. Yuqoridagicha obrazli tasavvurlar oqibati sifatida ayrim-ayrim so'zlarning ma'nosi ikkinchi planga o'tib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir ma'no anglashiladi. Ana shunday ma'no frazeologik ma'no bo'ladi.

Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rghanishni talab qiladi.

Iboradan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *Qizim boshimni osmonga yetkazdi* (*A.Qah.*) *Endi to`rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi.* (*I.Rah.*) Birinchi gapda harakat ("juda xursand qildi"), ikkinchisida belgi ("juda yaxshi") ifodalangan. Iboraning atash ma'nosi biror so'zning atash ma'nosiga teng, lekin qo'shimcha ma'nosi so'zda ko'pincha bo`lmaydi yoki so'znikidan "kuchli" bo'ladi. Masalan, *xufiya so`zi va yeng ichida* iborasining atash ma'nosi bir xil. Ammo iborada uslubiy va hissiy ma'no mavjud.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan so'zning leksik ma'nosidan farqlanadi. Chog`ishtiring: *xufiya – yeng ichida, beqiyos – yer bilan osmoncha, xursand – og`zi qulog`ida*. Ayrim ibora bildirgan ma'noni bir so'z bilan ifodalab bo`lmaydi: *Qildan qiyiq topib, janjal chiqarardi, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi*.

Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi biror so'zning ko`chma ma'nosiga asoslanishi (*shirin so`z, achchiq gap, ishning ko`zi, gapning tuzi*) yoki tarkibidagi qismlarning umumiyligi ma'nosiga tayanib ko`chma ma'no ifodalashi mumkin (*og`zi qulog`ida, bel bog`lamoq, og`iz ochmoq, tili tutildi, temirni qizig`ida ur*). Yoxud tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo`lmagan ma'no anglatadi (*boshi osmonga yetdi, tepe sochi tik bo`ldi, yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig`maydi*).

Ibora tarkibidagi so`z boshqa oddiy birikmadagi so`zga shaklan o`xshab qolishi mumkin:
1. *Qodirqul mingboshining bunaqangi ishlarga suyagi yo`q* (*H.Hak.*) – *Bu go`shtning suyagi yo`q.* 2. *Mirzakarimboyning qo`li uzun, bu ishlarni uddalaydi* (*Oyb.*) – *Basketbolchining qo`li uzun edi.* Bunday holda frazeologik ma'no matnga qarab aniqlanadi.

Iboraning qismlari qat'iy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo`lmaydi. So'zma-so'z tarjima fikr chalkashligiga olib keladi.

Ibora so`z birikmasi va gap ko`rinishida bo`ladi:

- 1) so`z birikmasi shaklidagi ibora: *anqoning urug`i, bosh ko`tarmoq, og`ziga olmoq.*
- 2) gap shaklidagi ibora: *ko`zi ochildi, dami kesildi, tili tutildi.*

Iboraning ham so`z kabi shakl va ma'no munosabatiga ko`ra turi mavjud:

I.2.1. Iboraning shakl va ma’no jihatiga ko’ra turlari.

Ko’p ma’noli ibora. Bittadan ortiq ma’noni anglata olish til birliklariga xos xususiyat bo’lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko’pi ikki ma’noli; uch ma’noli iboralar anchagina; to’rt, besh ma’noli iboralar ham uchraydi. Masalan, *bosh(i)ga qilich kelsa ham* iborasi bitta ma’noni, *aql(i) yetadi* iborasi ikkita ma’noni, *bo’yn(i)ga qo’ymoq* iborasi uch ma’noni, *qo’lga olmoq* iborasi esa to’rt ma’noni anglatadi.

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo’lganidek, bosh ma’no va yasama (hosila) ma’no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma’no to’g’ri ma’noga, hosila ma’no esa ko’chma ma’noga teng; frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, bosh ma’no ham ko’chma (obrazli) ma’no bo’ladi, chunki har qanday frazeologik ma’no ustama, ko’chma ma’no sifatida yuzaga keladi.

Ko’p ma’noli iborada uning ma’nolari asosan biri ikkinchisidan o’sib chiqqan bo’ladi. Ba’zi iboralarning ma’nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o’tamaydi, har biri o’zicha shakllangan bo’ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug’iladi.

Masalan, *ikki qo’l(i)ni burn(i)ga tiqib* iborasi ikki ma’noli: 1) «quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay», 2) «bekorchi bo’lib, biror foydali mehnat bilan shug’ullanmay». Bu ma’nolar o’zaro bog’lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshqa-boshqa voqelik yotadi: birinchisida band qo’l bilan borib (nimadir olib borib), bo’sh qo’l bilan qaytish, ikkinchisida esa qo’lni biror yumush bilan band qilmaslik.

Frazeologik ma’nolarnimg bir-biridan o’sib chiqmaganligini ba’zan ibora tarkibidagi so’z-komponentlarning boshqa-boshqa leksik ma’noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Masalan,

xayol(i)ga kelmoq iborasi ikki ma'noli: 1) «o'ylanmoq, idrok qilmoq, fahmlamoq», 2) «xotirasida tiklanmoq». Bu ibora tarkibidagi xayol so'zi birinchi frazeologik ma'noda «o'y, fikr» ma'nosi bilan, ikkinchi frazeologik ma'noda esa «xotira» ma'nosi bilan qatnashgan. Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p ma'noli ibora deyiladi: **Bosh ko'tarmoq:** 1) “sekin sog`aymoq”; 2) “sekin qaramoq”; 3) “qo`zg`olon qilmoq”; **o`ziga kelmoq:** 1) “sekinlik bilan tushunmoq”; 2) “sekinlik bilan sog`aymoq”; **ko`zi ochildi:** 1) “qoqilib tushundi”; 2) “ko`rdi”.

Omonim ibora. Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi — omonimiya — frazeologik birliklarda ham mavjud. Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi: *qo'l ko'tarmoq I* va *qo'l ko'tarmoq II* kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora orasida voqe bo'ladi, keltirilgan iboralar barcha muqobil shakllarida teng keladi: *qo'l ko'tardim*, *qo'l ko'taradi* kabi. Shunga ko'ra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin.

Odatda bir variantli iboraga ko'p variantli iboraning bir varianti shaklan teng kelib qoladi: *gap tegdi I* va *gap tegdi II* (keyingisining yana *gap tegizmoq* varianti bor) kabi. Shaklan teng kelish ko'p variantli ikki iboraning ba'zi variantlari orasida ham sodir bo'ladi: *gap(i)da turmoq I* [variantlari: *so'z(i)da turmoq II*; *lafz(i)da turmoq*] va *gap(i)da turmoq II* [varianti: *so'z(i)da qattiq turmoq*] kabi. Keyingi ikki tur omonimiya asli omoforma hodisasiga teng.

Omonimik muiosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil bo'ladi: har ikki ibora tarkibidagi bir komponent omonim bo'ladi, boshqa komponent esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Masalan, *o'ng kelmoq I* va *o'ng kelmoq II* iboralar tarkibidagi fe'l komponentlar ayni bir so'z bilan, ism komponentlar esa omonim so'zlar bilan ifodalangan: birinchi ibora tarkibida *ters sifatining antonimi*, ikkinchi ibora tarkibida esa *tush* otining antonimi qatnashadi.

Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so'zlarning o'zi bo'ladi. Bunda ikki holat bor:

a) Iboralar tarkibidagi so'zlar har xil leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Masalan, *dam bermoq I* va *dam bermoq II* iboralar tarkibida fe'l komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa-boshqa leksik ma'nosi bilan qatnashgan (dam 1 — «havo», «yel»; dam 2 — «istirohat»),

b) Iboralar tarkibidagi so'zlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Bunday omonimiyanı izohlashda so'z-komponentlarga suyanib bo'lmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi (Frazeologik omonimiyaning yuqorida bayon qilingan turlarini ham asli shunday yo'l bilan izohlash asosli bo'ladi). Masalan, *ichag(i) uzildi I* va *ichag(i) uzildi II* iboralar tarkibidagi so'z-komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi iborada qattik va uzlusiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek bo'lishidan, ikkinchi iborada esa

uzoq, muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishidan obraz olingan.

Bir xil qism (so'z) dan tuzilgan, ya'ni shakli o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora omonim ibora deyiladi: *wyni boshiga ko`tarmoq – onasini boshiga ko`tarmoq*. Misollar: 1. *Ilgari bir qatra og`zimga olmas edim* (Oyb.) 2. *Komissiya hayron bo`lib qoldi, ammo hech kim meni og`ziga olmas edi.* (A.Qah).

Sinonim ibora. Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, *yer bilan yakson bo'lmoq — yer bilan yakson qilmoq* iborasini *kulini ko'kka sovurmoq — kuli ko'kka sovurildi* iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlaridan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz; bir shingil; bir chimdim* sinonim iboralarini asosida har xil obrazlar yotadi: *so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdib olinadigan miqdor*.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, «butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha» ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* iboralarini o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jon(i)ni hovuchlab va yurag(i)ni hovuchlab* — sinonim iboralar: bir leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas. *Ko'ngl(i)ga tugmoq bilan yurag(i)ga tugmoq* o'zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim,

Sinonimiya — ma'no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda

polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki konkret frazeologik ma’nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma’no o’zicha sinonimga ega bo’lishi yoki ega bo’lmasligi mumkin. Masalan, monosemantik *tan olmoq* iborasiga polisemantik (uch ma’noli) *bo’yn(i)ga olmoq* iborasi birinchi ma’nosida sinonim bo’ladi. Bu uch ma’noli iboraning ikkinchi ma’nosiga sinonim yo’q, ammo uchinchi ma’nosiga *zimma(si)ga olmoq* iborasi birinchi ma’nosida sinonim (keyingi ibora uch ma’noli bo’lib, qolgan ikki ma’nosiga sinonim yo’q).

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko’pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to’rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, *ta’zir(i)ni yemoq* iborasi qatnashadigan uya ikki sinonimdan, *bir yostiqqa bosh qo’ymoq* iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, *es(i)ga tushmoq* iborasi qatnashadigan uya esa to’rt sinonimdan iborat. Shakli har xil, ma’nosi bir-biriga yaqin bo’lgan ibora sinonim ibora (frazeologik sinonim) deyiladi: *toqati toq bo’lmoq-sabr kosasi to`lmoq; yaxshi ko`rmoq – ko`ngil bermoq; terisiga sig`madi – boshi osmonga yetdi.*

Lug`aviy birlik sifatida ibora so`z bilan sinonimlik tashkil qila oladi: *g`azablanmoq – joni chiqmoq, sevmoq – yuragidan urmoq, maqtamoq – ko`klarga ko`tarmoq.*

Antonim ibora. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo’lib, iboralarda, ham so’zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyanı belgilash, bir tomonidan, iboralarning lug’aviy ma’nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiyada bir iboraning ma’nolarini o’zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so’zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyanı belgilash oson: *savol bermoq* va *yavob qaytarmoq*; *yerga urmoq* va *ko’kka ko’tarmoq* kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so’z-komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so’z-komponentlar o’zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar—ayni bir so’zning o’zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so’zlar: *yurag(i) keng* va *yurag(i) tor*. boshqa bir misol: *ko’ngl(i) joyiga tushdi* va *yurag(i)ga g’ulg’ula tushdi*, Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so’z, birinchisi o’zaro sinonim, ikkinchisi esa o’zaro ma’no munosabati hosil qilmaydi. Ko’rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so’z-komponentlar bu iboralarning o’zaro antonim bo’lishida muhim rol o’ynaydi; ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim so’z-komponentlar qatnashavermaydi. Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lug’aviy ma’no asosida belgilanadi.

Sinonimiyada bo’lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma’noga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir ma’nosiga antonim bor bo’lishi, boshqa bir ma’nosiga esa yo’q bo’lishi mumkin. Masalan, *savol bermoq* monosemantik

iborasiga besh ma'noli *javob bermoq* iborasining birinchi ma'nosi antonim (qolgan to'rt ma'nosiga frazeologik antonim yo'q.).

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora (frazeologik antonim) deyiladi:
ko`kka ko`tarmoq – yerga urmoq; qo`li uzun – qo`li kalta, ko`ngli oq – ichi qora..

1.2.2. Iboraning so`z, gap va so`z birikmasiga munosabati.

Ibora so`z, gap, so`z birikmasiga o`xshash va farqli belgiga ega.

Ibora va so`z. So`z ham, ibora ham tuchuncha ifodalaydi va gapda bir bo`lak vazifasida keladi.

So`z tovushdan, ibora esa so`zdan tashkil topadi.

So`z to`g`ri va ko`chma ma'no, ibora faqat ko`chma ma'no ifodalaydi.

So`zning ma’no tarkibida qo`shimcha ma’no bo`lmasligi mumkin. Iborada esa har doim qo`shimcha ma’no mavjud.

Ibora va so`z birikmasi, gap. Iborani tashkil etuvchi so`z barqaror aloqaga ega. So`z birikmasi va gapning tashkil etuvchisi erkin bog`lanadi.

Ibora nutqqacha tayyor holda bo`ladi. So`z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

So`z birikmasi va gapni o`zgartirish mumkin. Iborani “buzish” mumkin emas.

1.3. Frazeologizmlarning morfologik xususiyati.

Hozirgacha frazeologizmlarning semantik tabiatи, semantik tasnifi, shakл va ma’no munosabatiga ko’ra turlari, uslubiy xususiyatlari ko’pgina ilmiy izlanishlar manbai bo’lgan. Lekin frazeologizmlar “tilshunosligimizda muayyan so’z turkumlari bo’yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyatlari etarli darajada o’rganilmagan”.⁶

To’g’ri, grammatik xususiyatlari to’g’risida butunlay fikr yo’q demoqchi emasmiz. Masalan, Sh. Raxmatullaevning 1952- yilda yozilgan nomzodlik ishi bu boradagi ishlarning debochasiidir va hozirgacha turli olimlar tomonidan davom ettirilmoqda. Lekin ko’proq ularning sintaktik xususiyatlariga e’tibor berlib, morfologik nuqtai nazardan kamroq o’rganilgan. Masalan, adabiyotlarda fe’l (*aravani quruq olib qochmoq, arpasini xom o’rmoq*), ravish (*bir og’izdan, tomdan tarasha tushganday*), sifat (*bag’ri keng, yuragi toza*) frazeologizmlar

⁶ Mengliyev B. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Qarshi, 2004, 151-b.

borligi ta'kidlanadi va asosan fe'l frazemalarning morfologik, ya'ni turli lug'aviy va aloqa munosabat shakllariga munosabati haqida fikr yuritiladi.

Haqiqatdan ham frazeologizmlarning aksari fe'l turkumiga xos: *aqlini yo'qotmoq, kosasi oqarmoq, boshiga ko'tarmoq, ko'ngli yorishmoq* va h . Bular tuslana oladi. Masalan, *aqli(m\ng)ni yo'qotdi\yo'qotdim\yo'qotding*. Bu holatda birinchi komponentda egalik ham qo'shilib o'zgarib borayotganini ham kuzatish mumkin. Shunday ekan, bunday frazemalarni to'liq fe'l iboralar deb aytsa to'g'ri bo'ladimi? Yoki *ko'ngli yorishmoq* frazemasi har qanday shaxsda kelsa ham shaxs-son qo'shimchalarini olmaydi: *ko'ngli(m\ng)* yorishdi.

Ma'lumki, so'z turkumiga ajratishda so'zning semantik, morfologik, sintaktik belgilariga tayaniladi. Yuqoridagi iborada semantik nuqtai nazardan psixik harakat ekanligi anglashilib tursa-da, morfologik tomondan turli shakllarga ega bo'la olmaydi. Misollar shuni ko'rsatadiki, fe'l iboralarning morfologik tabiati so'z fe'llarning morfologik xusiyatlardan boshqacharoq. Shuning uchun bu iboralarning fe'lning har bir kategoriyasiga munosabati va paradigmاسini tuzib chiqish kerak bo'ladi.

Ushbu malakaviy ishda frazeologizmlarning turkumlarga bo'linishi hamda turkumlarning har bir kategoriyasiga munosabati va paradigmасini tuzib chiqishga harakat qildik. Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

Paradigmatik formalari. Iboralarning paradigmatik formalari (turlanishi, tuslanishi kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslanadi: *bosh egdim, bosh egding* kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslana olmaydi, doim III shaxs formasida turadi (Ibora tarkibida qatnashayotgan ega shuni talab qiladi). Masalan, *ko'z tegdi* iborasini tuslab bo'lmaydi.

Bu ikki tur fe'l iboralar tuslanishi jihatdan farq qiladi, ammo mayl, zamon kabi kategoriyalarning formalarida o'zgarish har ikkisida voqe bo'laveradi: *bosh egsam; ko'z tegsa, bosh egibdi, ko'z tegibdi* kabi. Bunday iboralarning ko'pi bo'lishli va bo'lishsiz aspektida ham kelaveradi: *bosh egaylik va bosh eg maylik* kabi.

Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z-komponentdan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z-komponent ko'pincha ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi qatnashadi: *ko'ngl(i)ga kelmoq, ko'ngl(i) yorishdi* kabi. Ana shu egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: *ko'nglim yorishdi, ko'ngling yorishdi, ko'ngli yorishdi* kabi.

Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi. Bunda ikki holat mavjud:

1) Tuslovchi bilan egalik affiksi shaxs-sonda muvofiqlashib yuradi: *ko'nglimni uzdim, ko'nglingni uz* kabi. Bunda ayni shaxs-son ma'nosi ikki marta ifodalanadi.

2) Tuslovchi bilan egalik affiksi boshqa-boshqa shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi, shunga ko'ra har biri mustaqil o'zgaradi: *ko'nglini topdim, ko'nglingni topsin* kabi.

Ayrim iboralarga bu ikki holat birgalikda xos bo'ladi; *ko'nglingni buzdim, ko'nglimni buzdim* kabi.

Ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksini o'zgartib ishlatish sifat, ravish iboralarda ham mavjud: *ko'nglim bo'sh, ko'ngling bo'sh; oyog'ingni qo'lingga olib, oyog'ini qo'liga olib* kabi.

Ba'zi iboralar sintaktik qurilishiga ko'ra birikmaga teng bo'la turib doim III shaxsda ishlatiladi. Masalan, *bosh(i)dan oshib yotmoq*, iborasi faqat III shaxsda keladi, chunki tuslanishida narsa bilan bog'lanadi. Ba'zi iboralar grammatik qurilishida doim III shaxs egalik affiksi qatnashadi, chunki egalik olib nisbatlanishida bunday ibora narsa bilan bog'lanadi: *mag'zini chaqmoq, misi chiqdi* kabi. Bunday hodisa fe'l bo'lмаган frazeologik birliklarda ham mavjud: *boshini yeb II, ko'nglida kiri yo'q, ichi qora* kabi.

Ayrim iboralarda ot so'z-komponentga egalik affikslarining faqat ko'plik formalari qo'shiladi (III shaxs egalik affiksi son jihatdan neytral): *gapimiz bir joydan chiqdi, gapingiz bir joydan chiqdi* kabi.

Faqat ko'plik tuslovchisini olib keladigan iboralar ham uchraydi: *gapni bir joyga qo'ydik, gapni bir joyga qo'yishdi yoki qo'ydilar* kabi.

Ot so'z-komponenti bilan tugaydigan ayrim iboralar kelishikda o'zgaradi, son formasini o'zgartadi: *ammamning buzog'i, ammamning buzog'ini, ammamning buzoqlaridan; tosh bag'ir, tosh bag'irlar, tosh bag'irlarga* kabi.

Misollardan ayonki, tuslanish, egalik affiksi olib o'zgarish (nisbatlanish) odatda kishi bilan bog'lanishda sodir bo'ladi, narsa bilan bog'lanishda esa doim III shaxs tuslovchisi yoki egalik affiksi keladi.

II BOB. Frazeologik birikmalarning sintaktik va morfologik bo'linishi.

Morfologik bo'linish shunday hodisaki, elementlardan biri (ammo qo'shma so'zlardagi oxirgisidan tashqari) morfologik o'zgarishga duch keladi. Bu masala Amosova, Kunin va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan Amosova quyidagi misollarni beradi:

- 1) He played second fiddle to her in his father's heart
- 2) She disliked playing second fiddle .

"to play second fiddle – ikkinchi darajali tobe qismni o'z ichiga oladi

- 3) It must be tarher fun having a skeleton in the cupboard.

A skeleton in the cupboard – iborasi oilaviy siz ma'nosini bildiradi.

A.V.Kunin morfologik o'zgarishlar frazeologik birliklarning ma'lum bir qismini yasashda ishtirok etuvchi sifatlarda sodir bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ex. He's deader than a door-nail.

It made the night blacker than pitch.

The Contervilles have blue blood, for instance the bluest in England.

O'z-o'zidan ma'lumki, morfologik o'zgarishlar imkoniyati har doim aniq xususiyat sifatida xizmat qila olmaydi, chunki u faqatgina chegaralangan miqdordagi frazeologik birliklardagina sodir bo'ladi (fe'lli hamda otli).

Frazeologik birikmalar o'rtasidagi sintaktik aloqalar masalasi ko'proq mulohaza yuritishni talab qiladi. Barcha tilshunos olimlar frazeologik birikmalar gapning bir qismini ifodalaydi deyishgan, lekin bu tushunchalar frazeologik birikmalarning orasida sintaktik aloqalarning yo'qligini anglatish yoki anglatmasligiga ko'ra farq qiladi. Aslini olganda gaplardagi so'zlar soni uning bo'laklari soniga teng bo'lishi zarur emas. Buni genetiv guruhi tomonidan ifodalangan quyidagi sifatli misollar bilan isbotlash mumkin:

The woman who laced too tightly's name.

Yoki sifatli gaplar tomonidan:

Oh-why-did-I-ever-merry-you moods.

Har ikkala gaplar ham ikkita sintaktik elementlardangina tashkil topgan.

Frazeologik birikmalar o'rtasidagi sintaktik aloqalarning mavjudligini sintaktik (transfor) o'zgartirish bilan (yoki chegaralash) yoki elementlarni inversiyaga uchratish bilan yoki o'zgartirsa bo'ladijan bo'laklarning o'rniga boshqa elementni qo'yish bilan ularning hammasini frazeologik birikmalarni buzmaslik orqali isbotlash mumkin. O'zgaruvchan element orqali deganimizda biz frazeologik birikmalardagi elementni struktura jihatdan zarur, ammo leksik jihatdan farq qilmasligini tushunamiz. Ba'zan bu o'zgaruvchilar xilma-xillikni holatida chegaralanadi. Bu holat odatda lug'atlarda noaniq (gumon) olmoshlari orqali ko'rsatiladi yoki aylana qavslarda berish orqali ko'rsatiladi.Masalan:

To make (sb's) hair stand on end – biror bir shaxsga nisbatan kuchli hayratlanish, qo'rquvni ifodalash uchun qo'llaniladi.

To sow (one's) wild oats – yoshlik paytida bosh qo'ymoq.

Qavs ichidagi so'zlarni bemalol olmoshlarga almashtirishimiz mumkin:

To make (my, your, the readers...) hair stand on end.

Qat'iy bo'laklar izchilligi buzilishi mumkin va ba'zi qo'shimcha frazeologik birikmani boyituvchi so'zlarni o'rnatish uni buzmaydi, balki uning doimiy sintaktik aloqani yaratadi. Misollar asosan fe'lli birikmalar bilan chegaralangan. Ex. The chairman broke the ice ----- Ice was broken by the chairman.

He burnt his boats and ... ---Having burnt his boats.... .

Olmoshlarning o'ren egallashi quyidagi misollar orqali berigan:

Hold your tongue ---- "Hold yours"

Barcha faktlar bu masala yuzasidan birliklar o'rtasida sintaktik aloqa borligini ko'rsatadi. Xuddi shunday holatlarni qamrab olgan birliklar o'zining morfologik tuzilishini va sintaktik strukturasini o'zgartirishi mumkin. Bunda u o'zgarmas, ya'ni qat'iy frazeologik birikmalar bilan taqqoslanganda na morfologik, na sintaktik o'zgarishlar uchramaydi.yuqorida muhokama qilingan ikkinchi tilda ya'ni ajralmas va o'zgarmas hisoblanadi. Ular ko'proq moslashuvchan vazifadoshlariga nisbatan so'zga yaqinroq turadi. Bu oppozitsiya tuzilish xususiyatiga tegishlidir. Ko'rinish turibdiki, leksik jihatdan o'rniga qo'yish sintaktik transformatsiya bilan bog'lanadi.

2.1. Ingliz tili frazeologizmlari, undagi muammolar va frazeologik birliklarini o'zbek auditoriyasida o'qitishdagi va o'rganishdagi ba'zi qiyinchiliklari.

Tilning frazeologik tarkibi keng ma'noga va stilistik bo'yoqlarga ega. Frazeologiya ko'p hollarda leksikologyaning bir bo'limi sifatida qaraladi. Chunki frazeologizmlar tildagi so'zlarning ekvivalentlari hisoblanib, leksikologiya esa tilning lug'aviy tarkibini tashkil etuvchi so'zlar va ularning ekvivalentlarini o'rganuvchi dissiplina deb ataladi. Ba'zan yeksika yoki stilistika kiritiladi. Frazeologizmlar bilan so'zlarni butunlay ekvivalent sifatida qarash yaramaydi. Frazeologizmlar hamda so'zlarning tarkibiy tuzilishi va ma'nolarida juda ko'p farqlanish alomatlari mavjud bo'lib, ularning morfologik va sintaktik funksiyalari ham turlichadir. Tarkibiga ko'ra so'zlar yaxlit birikkan shaklda hosil bo'ladi. Frazeologizmlarning har ikki semantik turi frazeologik butunlik va frazeologik chatishma xam o'z komponentlarining ma'no jihatidan ulanib ketishi, leksik tarkibning ko'pgina o'rnlarda morfologik va sintaktik jihatdan birikuvini turg'unligi bilan izohlanadi. So'z birikmalari va gaplarning komponentlari esa semantik jihatdan ancha erkinlikka ega. Shu tufayli frazeologizmlar turg'un birikmalar, so'z birikmalar va gaplar esa tarkibiga ko'ra erkin birikmalar deb yuritiladi.

Frazeologizmlarning semantik xususiyatlarini o‘rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya va paronomiya hodisalari borligi aniqlangan. Frazeologizmlarning pradigmatik va sigmantik xususiyatlari ularda grammatik (morfologik, sintaktik) va leksik- semantik vositalar keng qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Frazeologizmlarning variantlanish, ulanish, komponentlarini almashtirish (subtitutsiya qilishi), qo‘silishi, tushirib koldirilishi va transformatsiya qilishga bog’liq.

Grammatik morfologik strukgurasiga ko‘ra fe’lllik, otlik, ravishlik frazeologizmlar farqlanadi.

Bundan tashqari dam nomlari bilan bog’lik ya’ni onomastik komponentli frazeologik birliklar guruhini alohida ta’kidlash zarur. Bu guruh ichida quyidagicha uchta bo‘limni ajratib ko‘rsatish mumkin.

- 1) Familiyalar bilan bogliq bo‘lgan frazeologik birliklar
- 2) Ismlar bilan bog‘liq bo‘lgan
- 3) Ism va familiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklarning asosiy qismi ma’no jihatidan insonga qaratilgan, ular kishining biror fizik, ruhiy, axloqiy, intelektual xususiyatni, hatti harakatni baholaydi. Ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklar ingliz xalqining ma’naviy- madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, vokelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqlir. Ular obrazlilik, ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo‘lib, ular badiiy publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. ular ixcham, ma’no jihatdan salmokdor, fikrni asosli obrazli va ta’sirchan shaklida ifodalashga yordam beradi.

Kelib chiqishiga ko‘ra onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin.

- 1.Sof ingliz tiliga xos onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklar
- 2.Boshqa tillardan kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklar

O‘z navbatida sof ingliz tiliga xos onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklar quyidagicha guruhlanadi:

- 1.Biblizmlar
- 2.Sheksperezmlar
- 3.Antik mifologik bilan bog‘lik onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklar
- 4.Ertak qahramonlari nomlari bilan bog‘lik onomastik komponentli frazeologik turg‘un birliklar
5. Tarixiy shaxslar nomlari bilan bog‘liq onomastik komponentli frazeologik turgun birliklar
6. Adabiy manbalardan olingan (asar personajlari nomi bilan bogliq)

7. Onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar
8. Ingliz xalqining urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar
9. Ingliz religiyalari bilan bog'lik bo'lgan.

Chet tillardan kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik turgun birliklarni quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Mifologiya bilan bog'lik onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar
2. Fransuz tilidan kirib kelgan
3. Nemis tilidan kirib kelgan

Onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar matnini joilaitirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor mant koliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilishda ishlatildadi. Ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik turgun birliklar ingliz xalkining milliy o'ziga xosligshg' ifodalaydi. Ularni tarjimada aks ettirishning murakkabligi shundaki, ulrning yaqqol ajralib turuvchi milliy xarakterga ega ekanlagidir. Bundan tashqari onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarning leksik, semantik-stilistik va kompozitsion murakkab tabiatи tarjimon uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Tarjimada originaldagи frazeologik sostav (onomastik komponentli frazeologik turg'un birlik)ni saqlab qolish asarning obrazli-emotsional xususiyatlarini qayta yaratishning muhim shartidir.

Ingliz tilini o'qitishda so'zlar, so'z birikmalarini o'z ichiga oluvchi frazeologik birikmalari bilan taqqoslangandagi xususiyatdan kelib chiqqan qiyinchiliklar namoyon bo'ladi. Ingliz tili frazeologik birikmalarini o'zbek tili strukturasidan farq qilishi va ularning genetik nuqtai nazardan turli xil oilalarga qarashli ekanlidigkeitdir. Bizga ma'lumki, tillar turli oilaga mansub bo'lganda, ularning grammatik strukturasi tizimi bir-biridan farqlanadi. Bu holatni o'zbek tilida qo'shimchalarining ko'pligi, gapning ot bilan boshlanib fe'l bilan tugashi, predlog, artikl, rod kategoriyalarining yo'qligi bilan ta'riflasak, ingliz tilida esa aksincha, artikl, predloglar mavjud bo'lib, qo'shimchalar rivojlanmagan.

Bundan tashqari, ingliz tili frazeologik birikmalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklardan yana biri – bu ularning shakli va ma'nosining o'zaro farqlanishidir. Mantiqiy fikr yuritganda, ba'zi o'xshashlik, assotsiativ holatlarni aniqlash mumkin, ammo birinchi marotaba eshitganda yoki duch kelganda, til o'rganuvchilar shaklning o'zinigina qabul qilib, ma'nosini to'liq anglay olmaslik holatlari uchrab turadi. Masalan, "hot under the collar" iborasini olib ko'radigan bo'lsak, to'g'ridan to'g'ri tarjimasi "yoqa ostidagi issiqlik" ni beradi. Ma'nosidan kelib chiqib berilgan o'zbek tilidagi ekvivalenti esa "tepa sochi tikka bo'lmoq". Ko'rganimizdek, shakl va ma'noning turliligi iboralarning o'zlashtirilishidagi navbatdagi qiyinchilik hisoblanadi.

Hoshimov va Yoqubovlar ”Ingliz tili o’qitish metodikasi” kitoblarida, so’zlarni o’zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarni avvalom bor bir so’zning o’zida, ya’ni shakli, semantikasi qo’llanishi bo’yicha hamda ingliz va ona tillari aloqasidan kelib chiqishini ta’kidlab o’tganlar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ingliz tili frazeologik birikmalarini o’qitishdagi qiyinchiliklarni o’rganib chiqish maqsadida, ularni to’rt guruh bo’yicha tasniflab chiqdik.

1)Birinchi guruh o’zida internatsional iboralar, til o’rganuvchilar o’zlashtirishlarida qiyinchilik va interferensiyalarni keltirib chiqarmaydigan frazeologik birliliklar kiradi. Ular til o’rganuvchilar uchun tanish yoki o’z ona tillarida uchraydi. Masalan,

Archilles hell, flat broke, right now, as for me, hose-wife.

2)Ikkinchi guruhni xarakterlovchi belgi – bu ularning shakl va semantikasiga ko’ra faqat u yoki bu tilga tegishli bo’lishi. Masalan, to leave school – matabni bitirmoq, beat the band – jon-jahdi bilan ishga kirishmoq. Bu yerda iboralarning shakl ko’rinishi nazarda tutilib, ingliz tili frazeologik birliliklari fe’l bilan boshlangan. O’zbek tilida esa ular ot bilan boshlangan bo’lib, fe’l bilan tugallangan: big fish – obro’li, katta lavozimdagи shaxs. Bu ikki iboralarni ko’rib chiqadigan bo’lsak, unda semantic ma’no nazarda tutilib, faqat ingliz tilida uchrashi bilan xarakterlanadi. Big fish iborasi o’zbek tilida yuqori lavozimdagи kishilarga nisbatan qo’llaniladi. 3)Uchinchi guruh iboralari har ikki tilda uchraydi. Ular ba’zi bir qirralarda o’xshash va ba’zi bir qirralarda farq qiladi. Masalan,

Cry over spilled milk – so’nggi pushaymon o’zingga dushman,
give a ring – sim qoqmoq, have a gold heart- toza qalb egasi.

Keltirilgan misollardan ko’rinib turibdiki, ular asosan shakl jihatidan farq qilinib, ma’no jihatidan o’xshash. Cry over spilled milk iborasining to’g’ridan to’g’ri tarjimasi “toshib ketgan sut ustida yig’lamoq” ma’nosini beradi. Bu ma’no o’zbek tilidagi “so’nggi pushaymon o’zingga dushman” iborasiga to’g’ri keladi. Ammo, shaklan tuzilishi o’zaro farq qiladi. Shu jihatdan ularni qo’llashda til o’rganuvchilar tomonidan xatoliklarga yo’l qo’yish holatlari uchrab turadi va bu holat turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

4) To’rtinchi guruhning asosini ko’p ma’nolilik xususiyati tashkil etadi. Bunda ingliz tilidagi ba’zi iboralarning o’zbek tilidagi nisbatan polisemantiklik hola ti kuzatiladi. Masalan, all thumbs – o’ng’aysizlik, omadsiz kun, chap yonda turmoq.

Ko’rib chiqilgan ingliz tili frazeologik birikmalarini aniq bir ibora bilan belgilab bo’lmaydi. Bu kabi iboralar ham til o’rganuvchilarining o’zlashtirishlarida qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin.

Yuqorida ko’rib chiqilgan ingliz tili frazeologik birikmalarini o’rganish va o’zlashtirishdagi xatoliklar va qiyinchiliklarning oldini olish maqsadga muvofiqdir. Ularning

oldini olish maqsadida til o'rganuvchilarga shu kabi frazeologik birliklarga xos xarakteristikalarini, ingliz tili iboralarning avvalom bor ma'nosining qo'llanilishi holatlarini tushuntirish lozim. Bu yerda albatta, ingliz va o'zbek tillarining turli sintalitga turli tillar oilasiga tegishli ekanligini va shu asosiy faktor ta'sirida ularning frazeologik qatlamlari ham turli situatsiya, kontekstlarda turlicha konsept va obrazlar bilan ifodalanilishi o'rinni ekanligini ta'kidlashni unutmaslik zarurdir.

2.2 Ingliz tilida turg'un birikmalarining kognitiv aspekti va zoonomik komponentli frazeologik birliklarning antonimik qatorlari

Vogelikdagi predmet voqea - hodisalarning lisoniy nomlanishi jarayoni kognitiv bosqichdan o'tishi lozimligi haqida ko'p fikrlar aytilgan. Aynan shu bosqichda hosil bo'ladigan kognitiv strukturani ingliz zabon tilshunoslar "regse1rG" deb atashmoqda (Jackedoff 2004:307). Rusiyabon olimlar ham "vospriyatiye" atamasini Qo'llashdan ko'ra kalkalashtirilgan "persept", "perseptivniy" kalimalarini ma'qul ko'rishmoqda. Bu nafaqat "regse1Ue" fe'lining aniq tarjimasini topish qiyinligi bilan bog'liq bo'lmasa kerak. Haqiqatdan bu so'zning izohli lug'atlarda berilayotgan mazmunini aniq tarjima qilish va ona tilidagi muqobil atamani topish qiyin masala. (Qiyoslang: to have or come to have knowledge). Biroq faqatgina ko'rish, sezish, eshitish orqali bajarilayotgan jarayon bo'lmasdan, balki sodir bo'layotgan vokelikning miyada aks topishi jarayonidir. Demak, "idrok" fiziologik jarayonlardan tashqari anglash, fahmlash, tushunish kabi aqliy jarayonlarni ham qamrab oladigan kognitiv faoliyatdir.

Vogelik va konseptning o'zaro munosabati hamda referensiya hodisalari bilan bog'liq muammolar bilan uzoq paytdan buyon •chug'ullanib kelayotgan Rey Jakendoff bir narsada haq:" Idrok qilinayotgan dunyo vogelikdir ...persept ("idrok hosilasi") to'laligicha miya (ong) "qopqoniga tushgan" ular neyronlarga

o'rnashgan formal strukturalardan boshqa narsa emas. Lekin idrokiy tizimlar bizga "tashkaridagi " predmetlar hakidagi sezgini, hisni va tuyguni uyg'otadi. Biz borlikdagi predmetlarni tajribadan o'tkazamiz, ongdagi idrokni emas. Biz shu yo'sinda tuzilganmiz"⁷ (Jackedoff 2004:308). Ammo olimning "bu dunyo insonning idrok etish va konseptuallashtirish (tushunchalar hosil qilish) faoliyati, uslubi mahsulidir"⁸ degan fikriga ko'shilish ilojini topa olmadik.

⁷ Jackedoff . 2004 p.308

⁸ Jackedoff . 2004 p.309

Endi yuqoridagi xulosalar asosida bir necha turg'un birikmalarni tahlil qilib chiqaylik. Ayrim qiyosiy frazeolik birikmalarda insonning ba'zi bir tomonlari hayvonlarniki bilan taqqoslanadi. Bunga "asosan, kabi" konstruksiyadagi iboralar qatnashgan. Biz bu qiyosiy frazeologik birikmalarni ham ikki turga salbiy va ijobjiy guruhlarga ajratamiz:

I. Odamning salbiy xususiyatlarini bildiruvchi salbiy ma'nodagi zoonimik komponentli frazeologik birikmalar:

Blind as a bat -ko'rshapalakdek ko'r: butunlay ko'r, atrofida bo'layotgan hodisalardan umuman bexabar; nima qilayotganini bilmaydi.

Dance like an elephant (- fildek raqsga tuigmoq, qo'pol beso'naqay harakatlar bilan raqsga tushmoq

As weak as a cat- (ijobjiy) mushukday kuchsiz. Butunlay kuchsiz, holsiz, odatda biror bir uzoq davom etgan kasallikdan keyin.

Drink like a fish -baliqdek ichmoq. Juda ko'p miqdorda alkogol iste'mol qilmoq, har doim mast bo'lib yurmoq.

As timed as a hare -- kuyondsk qo'rkoq, juda ham qo'rkoq kimsa haqida.

As proud as a peacock -- tovusdek mag'rur

As gready as a wolf -- bo'ridek ochko'z.

As silly as a goose -g'ozdek nodon.

Yuqoridagi misollarda salbiy ma'noda topkeu, monkey,cat,wolf zoonimlari ishlatilgan.

2. Odamning ijobjiy xususiyatlarini bildiruvchi zoonomik komponentlar frazeologik birliklar:

Quyidagi zoonomik frazeologik birliklarda esa hayvonlarning ayrim ijobjiy tomonlari inson xususiyatlari bilan qiyoslanan. As bold as a lion - Sherdek jasur,mard, dovyurak. As bee as a bee - Asalaridek band. Doim biror bir foydali ish bilan shugullanish.

As wary as a cat - Mushukdek ehtiyotkor, juda ehtiyotkor.

As quite as a mouse - - Sichqondek jim, sokin, yuvosh kimsa haqida.

3.Odamlarning ijobjiy hamda salbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar.

Like a lamb- Qo'zichoqqa o'xshagan yuvvosh tabiatli kimsa.

Frazeologik birikmalar sostavidagi zoonimlar ham salbiy ham ijobjiy ma'noda kelishi mumkin.

Ya'ni bir zoonimning o'zi insonning har turli xil kechinma va xususiyatlarini ochib berishda qo'llanilgan.

"cat" zoonimi insonlarning

1.ehtiyotkorlik

2.asabiylik

3.yovuzlik

4.kuchsizlik

5.janjalkashligini ifodalab kelgan.

Bunday misollardan ko‘plab boshqa zoonimlarni ham keltirish mumkin. Jonli nutqda biz zoonimlarni ijobjiy yoki salbiy obrazlarini ifodalashini o‘rgangan holda ko‘rishimiz joiz.

Antonimlarning iboralar orasida ham borligi "antonim" terminini kengroq tushunishni talab kiladi. Asli antonim deb o‘zaro zid ma’noni anglatuvchi ikki til birligi tushuniladi. Shunga ko‘ra hodisaning o‘zini antonimiya deb yuritish ma’qul. Antonim bo‘lgan iboralarda biri yoki har ikkisi o‘z sinonimiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan:

to eat like a fly, to eat like a bird! --- кам емоқ

to eat like a horse -- кўп емоқ

to eat like a wolf --- очкўзларча емоқ

“to eat like a bird” - iborasi o‘zining ikkita antonim iborasiga ega bo‘lmokda va uning ikki antonim iboralari o‘zaro sinonimik aloqaga kirishganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu asoslarni kuyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin.

1. She couldn’t understand why she failed to loose weight when she was as she said, eating like a bird.

2. I can eat like a horse, did you notice? But I can also eat like a fly if I have to (Johnson)

Yuqoridagi misolda bir vaqtda ikki antonim ibora kelgan, ya’ni “to eat like a horse” va “to eat like a wolf”. Shuni aytib o‘tish kerakki, “to eat like a horse” iborasi “to eat like a wolf” ga sinonimdir va ular ikkalasi ham “to eat like a wolf” iborasiga antonimik aloqada bo‘lmoqda.

3. Of course she’s feeling quite well. She’s eating like a wolf. (S.W.Maugham)

Demak, yuqorida aytganimizdek, har bir antonim iboraning o‘z sinonimlari bor ekan. Bu kabi misollar tahlilimizda unchalik ko‘p emas. Lekin ingliz tilining turli izohli lug‘atlarini ko‘rilsa, frazeologizmlarning antonimlari va sinonimlari juda ko‘pligi tufayli ularni alohida ilmiy ish mavzusi sifatida chuqur ilmiy tadqiqot qilish mumkin.

a bird in the bush

a bird in the hand - naqd narsa

asossiz va’da, quruq va’da

a dead bird - naqd narsa

Bu misolda esa “a bird in the bush” iborasi ikki sinonimik ibora, ya’ni “a bird in the hand” va “a dead bird” iboralari bilan antonimik aloqaga kirishmoqda. Buni uning nutqda ishlatilishida ham ko‘rishimiz mumkin.

He complained to fleur that the book dealt with nothing a bird in the bush; it was unpractical. (Galsworthy)

But Butler was not philanthropist. He would have to be approached with a very sizable bird in hand.

It was betting on a dead bird. We had waited nearly a year for a killing like this.

Ko‘pgina zoonimik frazeologizmlarda ularning bir komponentini o‘zgartirish usuli bilan antonimiyani hosil qilish mumkin. Masalan:

Sad dog	----- » surly begyar (dog)
xurram, shod inson	badjahl, xafa inson
a bird in the hand -----	a bird in the bush
naqd	asossiz quruq va’da

Dastlab barcha komponentlari farqlanuvchi so‘zlardan iborat bo‘lgan zoonimik komponentli frazeologik antonimlarni ko‘rib chiqamiz. Bu turdagи antonim iboralarning komponentlari ko‘pincha farqlanuvchi so‘zlar bo‘lishi mumkin. Bu turdagи frazeologik antonimlar u qadar ko‘p emas.

An old bird	----- a spring chicken
tajribali kishi	tajribasiz, g‘o‘r kishi

Bu zoonimik komionentli frazeologik antonimiyada "dog" zoonimi ikkala iborada ham katnashgan bo‘lib, "top" va «under» so‘zları o‘zaro bir-birlari bilan antonimik aloqaga kirishgan.

2.3 Ingliz tili frazeologiyasida erkak jinsini anglatuvchi gender xususiyatlar.

Ingliz tili bir necha ming yillik tarixga ega. Shu yillar mobaynida insonlar tomonidan ma'noni chiroqli ifodadigan katta miqdordagi so'z iboralari yig'ila bordi. Keyinchalik bu iboralari yaxlit bir ma'noni ifodalovchi frazeologizmlarga aylanib, hozirgi vaqtga qadar frazeologiya sohasida juda ko'p ishlar, tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayni vaqtida esa olimlar tadqiqotchilarning asosiy e'tibori frazeologiyada gender masalasiga qaratilgan. Avvalo "gender"so'ziga to'xtalib o'tsak.

"Gender"so'zi bir necha yil oldin asosan ilmning grammatika sohasida "grammatik kategoriya"ni ifodatashda (she, he) qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib u turli sohalarda turlicha ma'no kasb etib kelmoqda. Lekin uning markazida avvalo jamiyatning erkak va ayolga

bo‘lgan ijtimoiy va madaniy munosabati, u yoki bu jins vakillarining xulq atvori, erkak yoki ayol xususiyatlarinn ifodalovchi steriotiplar turadi. Ya’ni mana shu faktorlarning barchasi jinsn hayotning ijtimoiy yoki madaniy sohasiga yo‘naltiradi.

Gender frazeologiya sohasida ham o‘z o‘rnini topib, jinslar orasidagi munosabatlarni ifoda etishda unumli foydalanilmorra. Shunga ko‘ra, bazi bir frazeologik birliklar xulq atvor va steriotiplarga xos xususiyatlariga ko‘ra erkak jinsiga nisbatan ishlatiladi.

Masalan, ingliz tilida "take one’s hat" iborasi asosan erkaklarga nisbatan ishlatilib, biror bir mansabdan ketish ma’nolarini ifodalagan. Bu iboraning erkaklarga nisbatan ishlatilishi bejiz emas.Oldingi davrda erkaklarning shlyapalar kiyishi urf bo‘lgan va ular shlyapalarini boshlaridan olib xayrashganlar. Shu shu iboraning eski ma’nosи yangi, ya’ni " biror bir mansabdan ketish" ma’nosiga o‘zgardi.

Yoki "Big Daddy " iborasi asosan erkaklarga nisbatan ishlatilib, qizini himoya qiluvchi, g’amxo‘r otani ifodalagan.

Tadqiqot dolzarblii ingliz tilida erkak jinsiga xos bo‘lgan frazalarni topish bizga erkak kishining tilda tutgan o‘rni va yoki tilga qaysi taraflardan ta’sir qilishini o‘rganishga imkon berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi - tilda erkak kishining o‘rnini aniqdash, buning sabablarini sotsial va ijtimoiy jixatdan tadqiq etish, o‘zbek va rus tillari frazeologizmlari bilan solishtirishdan iborat. Bu maqsad o‘zining tarkibiga quyidagi masalalarni ham qamrab oladi:

- 1.Tadqiqotning nazariy va uslubiy tamoyillarini aniqlash.
2. Erkak jinsi gender aloqalari bo‘lgan frazeologik birliklarni aniqlash
3. Tilda erkak kishiga xos fraziologik birliklarning vujudga kelish sabablarini aniqlash

Tadqiqotning ob’yektiga til va jinsning aloqalari, ya’ni uning tildagi leksik va semantik ustivor tomonlari, tilga erkak kishining ijtimoiy xususiyatlarining ta’siri, ya’ni uning jamiyatda va oilada tutgan o‘rni kiradi.

Ingliz tili frazeologizmlarida erkak jinsi xususiyatlarini aniqlash, gilologiya fakultetining maxsus kurs, seminarlarini qayta ishlab chiqish va gender tilshunosligiga qo’shimchalar kiritishga imkon beradi.

Bulardan tashqari biz badiiy adabiyotlarda ko’plab erkak va ayol ismlari qatnashgan ko’plab frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin.Biz quyida ularidan ayrimlarini keltirib o’tishni joiz deb topdik:

Erkak ismlari qatnashgan frazeologik birliklar:

1.Adam’s ale --- hazil: “Adam vinosi “, suv.

Some take a glass of porter to their dinner, but I slake my thirst with Adam’s wine.

2.(as) old as Adam --- almisoqdan qolgan, eskirgan.

Ex. She had tempted him, yes, but he would not use that excuse as old as Adam. (P.S.Buck, Come, My Beloved, ch.VII)

3.one's outward Adam – amer.hazil.brennaya plot, telo.

4.since Adam was a boy – suhbatda ishlatiladi: ancha ilgari, qachonlardir sodir bo'lgan, allaqachon.

5. The old Adam—“vetxiy adam”, grexovnost человеческой натуры(намойок на грехопадение Адама)

Ex. Occasionally the old Adam – or should one say Eve? – would assert itself in my aunts and then, still thoughtful for others, she would descend into the kitchen and be disagreeable to Amy our new servitor, who, never minded it. (J.K.Jerome, Paul Kelver, book I, Ch. VIII)

6.a smart Aleck – o'ziga ishongan surbet,yuzsiz odam

Ex. “Now, who would do it but that little Finchley, snip the little smart aleck?” snapped Gubert. (Th. Dreiser, “An American Tragedy”, book II, ch.XXX)

7.the Holy Alliance – muqaddas, abadiy sulh, ittifoq

Ex. A century and a half ago Metternich and Alexander tried to buildup their “Holy Alliance” to maintain the rotting monarchical “leoptimist” order and turn back the wheel, of history. They failed. (Labour Monthly, Febr. 1962)

8. Merry Andrew – og’zaki suhbatda uchraydi. Hazilkash, masxarabooq,qiziqchi, sho’x kishi.

Ex. He found the master of the puppetshow belabouring the back and ribs of his poor Merry Andrew. (H.Fielding, “Tom Jones, part XII, ch.VII)

9. Appeal from Philip drunk to Philip sober --- puxta va chuqur o’ylab ko’rulgach bir qarorga kelishni so’ramoq.

Ex. I shall not accept that decision of yours now. I shall wait and appeal from Philip drunk to Philip sober. (DEI)

10. appeal to Causar --- 1)hokimiyat tepasidagilar e’tiborini tortish

Ex. The mine exploded ... and in a formal reference to the Prince Regent the imdignant soldier appealed to Caesar. (P. Guedalla “Palmerston”, “War office”)

2) siyosiy umumxalq saylovlariga murojaat qilish

It this police ... were not accept as the police of the Government... I should feel it my duty to appeal to Caesar (Suppl).

11. In the arms of Morpheus ---hazil so’z, Morfeyn tushida, qo’ynida.(grek mifologiyasida Morfeyn – tush xudosi)

Ex. The night operator, answered the phone . -This is Perry Mason, he said. I supposed Paul Drake, is wrapped in the arms of Morpheus. (E.S.Gardner, The Case of the Runaway Corpse, ch.5)

12.Teddy bear ---(yumshoq o'yinchoq ayiqcha) AQSh prezidenti T.Ruzvelt (T.Ruzvelt, 1858-1919) nomiga qo'yilgan --- ayiq ovi ishqibozি

Ex. He had abundant brown hair, like his son, and when you saw him in bathing trunkles, you discovered that it was, all over his chest ... like a Teddy bear's (U.Sinclair, World's End, ch.2)

13.Big Bertha –1) qadimiy harbiy jargon “Katta Berta” katta kelibrli nemis pushkasi, 1-jahon urushida qo'llanilgan. Katta qurol-yarog' fabrikasi egasining rafiqasi Fon Balena nomiga qo'yilgan

Ex. The Germans constructed enormous siege guns, known as Big Berthas, and set them up, in a forest behind. Laon and were firing shells into Paris from a distance of seventy-five miles. (U.Sinclair, “World's End”, ch.22)

2.amerikacha jargon—semiz, to'la ayol

14. a Green Beret --- so'zlashuvda ishlataladi “Yashil beret (ingliz, keyinchalik amerika desant diversion qo'shinlarining nomi.

15. Brown Betty -- amerika termini bo'lib, olmali nonli pudding (pirog)

Ex. For dessert you got Brown Betty which nobody are except maybe the little kids in the lower school that didn't know any betty and guys like Ackley that ate everything. (L.Salinger, The Catcher in the Rye, ch.V)

16.Billy Bunter – ochko'z, semis, beso'naqay o'smir. Fransuz yozuvchisi hikoyasidan olingan o'quvchi nomi bilan bog'liq

Ex. It is better for Britain, declared an M.P.recently, to have a few more Billy Bunters thom the kind of hunger which was caused to many children before milk in schools. (Times, March 7, 1959, Suppl).

17. Peck's Bad Boy --- amerika nutqida uchraydi: O'zining soddaligi bilan boshqalarni noqulay ahvolga solib qo'yadigan amerikalik kishi. G.Pekning ”Peck's Bad Boy and his Pa” nomli kitobidan olingan (G.W.Peck, 1840-1916)

Ex. ... the book is an earnest effort ... to buttress his reputation as the Peck's Bad Boy of advertising. (Time, June 22, 1970, DNE)

18.Teddy boy --- so'zlashivda: olifta, Teddi yumshatib Edward ismidan olingan. Ingliz qiroli Edward VII nomiga borib taqaladi.. U kiyinish uslubi bilan farq qiladi. 20-asrning 50-yillarida yoshlar orasida uning tarafdorlari – Teddy bolalar deb atalgan (Teddy boys). Shuningdek bu bolalarni urushqoq va janjalkash deb hisoblashgan

On the night of July 2, 1953, a number of young men dressed in the style of what is called “Teddy boys” attacked four other young men who were complete strongers to them (Tribune, July 6, 1962)

19. brother Jonathan – 1) haqiqiy amerikalik, yanki. 2) AQSh hokimiyyati.

20. a Beau Brummel – kelishgan, didli, yaxshi kiyinadigan Brammel (J.Brammel o’z zamonasining mahshur oliftasi)
21. Brown, Jones and Robinson – oddiy inglizlar taqqoslaganda Ivanov, Petrov, Ciderov. 1870 yilda “Punch” humoristik jurnalida ularning sarguzashtlarini rasmlar bilan tasvirlab bergan
22. a Jim Crow car --- amerika so’zidan olingan bo’lib, negrlar uchun maxsus vagonni anglatadi.
23. the Darby and Joan club – keksalar uchun klub
24. Joseph’s coat --- rangli, ko’rinishi yaxshi qimmat kiyim; hurmathli kishilar kiyadigan kiyim.
25. Colonel Blimp – “polkovnik Blimp” qattiq qo’llikni konservativizmni xush ko’radigan kishi. (D.Lou karikaturasi qahramoni (D.Low 1891-1963))
26. Prince Albert (coat) – amer so’zlashuv tilida uchraydi: orqasi uzun syurtuk. (Qirolichcha Viktoriyaning turmush o’rtog’i prins. Albert 1960 yilda AQShga tashrif buyurganda kiygan).
27. According to Cocker -- suhbatda uchraydi: “Koker”dek aniq, tiniq, barcha qoidalarga binoan bajarilgan (E.Kokker, 1631-1675 --- XVII asrda keng tarqalgan ingliz arifmetika darsligining avtori)
28. the Admiral Crichton --- tengcis, beqiyos Krayton, olim, ilmli, ziyoli kishi (J.Krayton – XVII asrda yashab o’tgan mashhur Shotland olimi, u 14 yoshida magistr darajasini olgan)
29. cousin Jack -- so’zlashuvda ishlatiladi: “Jek amaki” Karnoulla fuqarosining laqabi.
30. (as) rich as Croesus – Krez kabi boy
31. John Collins – “Jon Kollinz” (Amerika salqin ichimliklarining biri)
Tjat most angelic ofdrinks for a hot climate – a John Collins.
32. Damon and Pylhias – afsonaviy “Demon va Pilfis” qadrdon, ajralmas do’st
33. Dandie Dinmont – Shotlandiya tereri. (V.Skotning “Gay Menering” asari bosh qahramoni shotland tererlari egasi nomi bilan bog’liq.)
34. A Daniel come to judgement – 1) haqqoniy, ko’rimsiz sudya(Shekspir yaratgan iboraning hozirda teatr tilida kinoyaviy ishlatilishi. 2) dono, aqli kishi
35. Davy Jones – dengizga oid jargon 1) dengizdagи yovuz ruhi (adabiyotga 1751 yil T.Smolettom tomonidan kiritilgan)
36. spotted Dick (or dog) – mayizli , uzumli pudding, pirog.
37. Doctor Fell -- boshqalarni o’zidan itaradigan, yoqimsiz kishi. Adabiyotga satiric yozuvchi T.Brroun tomonidan kiritilgan ((Th.Brown,1643-1704. –uni ishdan haydagan Doktor Felle haqida yozgan)
38. Dr.Feelgood –amerikacha jargon: ” yaxshi kayfiyatdagi doktor”
39. Dr.Jekyll and Mr.Hyde – bir qarasa yaxshi, bir qarasa yomon xislatlarni o’z ichiga olgan kishi.
40. Cold Duck – amerikancha kokteyl bo’lib, burgundy va shampanning aralashmasi.

New Year's revelers decided that cold Duck was just thi tipple with which to see out the intflationary old year, and toast in the uncertain new one. ("Time" Jan.12, 1970, DNE)

41. another Richmond in the field- yana boshqa bir kutilmagan raqib(Shekspirizm iborasiga mansub).

Brian's hot Irish temper rose when he saw another Richmond in the field (F.W.Hume."History of English").

42. clever Dick –aqlli Dik, odatda kinoyada ishlatiladi.

43. Jacob's ladder – "Jakobning narvoni", osmon o'par, baland narvon, pog'ona.

Senator departs dreaming his own dream of Jacob's Ladder which ascends not to heaven but to the White House. (G.Vidal, "Rocking the Boat")

44. John Hancock (or John Henry) – shaxsiy imzo.(J.Xenkok—mustaqillik deklaratsiyasiga birinchibo'lib imzo chekkan amerika davlat arbobi).

Joe felt proud when he put his John Hencock on his first driver's license. (DAI)

45. John Q.Public – suhbatda ishlatiladi: odatiy, o'rtacha amerika fuqarosi.

It is John Q.Public's duty to vote at each election. (DAI)

46. Jimmy o' Goblin ---jargon. Soveren (oltin tanga)

Three hundred golden sovereigns – that's what he turned it into. Three hundred round golden Jimmy o' goblins.(D.L.Sayers, "Have his Carcase")

47. (even) Blind Freddy could see it - buni hatto ko'r ham biladi, ko'ra oladi-ku (XX asrning 20-yillarida Sidne shahrida ko'r bo'lishiga qaramasdan bemalol shahar bo'ylab savdo qilgan va mijozlarini ovozidan taniy olgan kishining ismidan olingan).

Well, whadda you keep asking people for Blind Freddy could see the way things shaped last Saturday, when they was here. It's Johnny... they couldn't take Johnny. That was it. (D.Hewell, "Bobbin Up").

48. Weary Willie --- jargon. Ishyoqmas,dangasa, yalqov.

Weary Willie may say that he hates work, and is quite willing to take less. (B.Show)

49. For Christ's (God's, heaven's or Pete's) sake – xudo haqqi, jin ursin, yolvoraman.

Lade, for Pete's (Christ's) sake, keep it quite a minute and let a man think.(J.B.Priestley, "Festival").

50. Before you can say Jack Robinson --- tez,ko'z ochib yunguncha, bir zumda, zudlik bilan.

Look here, my boy, when you are in my hotel you behave like a gentleman or you will find yourself in the street befor you can say Jack robinson. (S.W.Maugham, "Complete short stories")

51. Johnny on the spot – har doim ishda tayyor, doim o'z o'rnida bo'ladigan kishi.

He looked through the hall door saw the empty hall. Johnny on the spot all right. Two hours early he guessed.

52. (as) proud as Lucifer – dimog'dor, takabbur, o'ziga bino bo'ygan.

That man was my father and I bear his name. I consequently proud—proud as Lucifer (Ch.Dickens,"Martin Chuzziewit")

Biz ingliz yozuvchilari badiiy asarlarini o'qir ekanmiz, ularda nafaqat erkak ismlari qatnashgan, balki ayol ismlari qatnashgan frazelogik birliklarga ham duch kelamiz. Biz quyida ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

1.Long Eliza – ko'k, oq rangli xitoy chinni vazasi, unda ayollar rasmi o'z aksini topgan.

2.Annie Oakley – bepul bilet (teatr, o'yin va b.q. kirish uchun. (Anna Oukli –mashhur amerika sirk aktrisasi.1860-1926)

3.Aunt Edna – jargon. "Edna xola" konservativ didli teatr a'zosi (engliz dramaturgi T.Rottigen tomonidan iboraga kiritilgan)

4. Sally Lunn – suhbatda ishlatiladi. Shirin, yumshoq bulochka (XVIII asr oxirida yashagan shirinliklar tayyorlagan ayol nomidan olingan)

It's a sort of night that's meant for muffins. Likewise crumpets . Also Sally Lunns (Ch.Dickens, "The Chimes")

5. Aunt Jane – amer. jarg. "Jeyn xola"- (прозвище негритяночка-богомолок)

6. (an) Aunt Sally – 1)Sali xola (xalq o'yinlaridan birining nomi)

They wandered among the sideshows and the many booths where a game of luck or of throwing skill tried to find an exciting new name-spinning –wheels and coco-nut shies, pig-pelting and Aunt Selly (J.Lindsay, "A Local habitation).

2) ayblast yoki haqorat qilish uchun mo'ljalga,nishonga olib qo'yish.

Well, you've set us both up as figures of fun, haven't you? A couple of Aunt Sallies? (P.H.Johnson, "The Survival of the fittest")

7. Aunt Tabby (or Aunt Thomasina) --- amer.jarg. "Tebbi xola" (konservativruhidagiayol,ayollar teng huquqliligi tarafдорлари)

Accomodaters and temporizers within the Women's Lib movement were spoken of as Aunt Thomazines ("The Atlantic", 1970)

8. a banquet of Luculles (a Lucullian banquet) –

9. a good Samaritan – yaxshilik qiluvchi, mehribon, yordamini ayamaydigan saxiy kishi.

"We have been stranded for half an hour," Jusef said. "The cars have gone by and I have thought when will a good Samaritan appear.

10 the daughter of Eve (Eve's daughter)— Momahavoning qizi. Nozik xilqat vakillariga nisbatan ishlatiladi

11. cousin Betty – eskirgan so’zlashuvda ayollarga nisbatan ishlatilgan --aqli past, kaltafahm.
12. An Eton crop – ayollarning o’g’il bolalarnikidak qilib kalta soch kesishi.
13. Queen Anna is dead – suhbatda ishlatiladigan kinoya, piching: Amerika kashf qilindi (muhim yangilikka nisbatan aytildigan javob)

The most depressing rumours are about here as to the next ... production --- Julius Caesar or some such obsolete rubbish... Will nothing persuade Henry Irving that Queen Ann is dead? (B.Show, “Letter to E.Terry, March 26, 1896)

14. Sister Anne -- ishonchli, sodiq dugona (XVII asr fransuz yozuvchisi Sh.Perro ertagi qahramoni)

Here, however, a new witness suddenly came forward. The gate-keeper’s little daughter, Rose She had been Sister Ann on her tower, and had called out to her companion when she saw anybody coming along the road. (D.L. Sayers, “Have his Carcase”)

15. Lady Bountiful – dama blagotvoritelnitsa, dama patronetsa

I recalled her as an energetic, autocratic personality ... with a fondness for opening bazaars and playing the Lady Bountiful. (A.Christie, “The Mysterious Affair at styles”)

XULOSA

Ingliz tilini o’qitishda so’zlar, so’z birikmalarini o’z ichiga oluvchi frazeologik birikmlari bilan taqqoslangandagi xususiyatdan kelib chiqqan qiyinchiliklar namoyon bo’ladi. Ingliz tili frazeologik birikmalarini o’zbek tili strukturasidan farq qilishi va ularning genetik nuqtai nazardan turli xil oilalarga qarashli ekanlididir. Bizga ma’lumki, tillar turli oilaga mansub bo’lganda, ularning grammatik strukturasi tizimi bir-biridan farqlanadi. Bu holatni o’zbek tilida qo’shimchalarning ko’pligi, gapning ot bilan boshlanib fe’l bilan tugashi, predlog, artikl, rod kategoriylarining yo’qligi bilan ta’riflasak, ingliz tilida esa aksincha, artikl, predloglar mavjud bo’lib, qo’shimchalar rivojlanmagan.

Bundan tashqari, ingliz tili frazeologik birikmalarini o’zlashtirishdagi qiyinchiliklardan yana biri – bu ularning shakli va ma’nosining o’zaro farqlanishidir. Mantiqiy fikr yuritganda, ba’zi o’xshashlik, assotsiativ holatlarni aniqlash mumkin, ammo birinchi marotaba eshitganda yoki duch kelganda, til o’rganuvchilar shaklning o’zinigina qabul qilib, ma’nosini to’liq anglay olmaslik holatlari uchrab turadi. Masalan, ”hot under the collar” iborasini olib ko’radigan bo’lsak, to’g’ridan to’g’ri tarjimasi ”yoqa ostidagi issiqlik” ni beradi. Ma’nosidan kelib chiqib berilgan o’zbek tilidagi ekvivalenti esa ”tepa sochi tikka bo’lmoq”. Ko’rganimizdek, shakl va ma’noning turliligi iboralarning o’zlashtirilishidagi navbatdagi qiyinchilik hisoblanadi.

Hoshimov va Yoqubovlar ”Ingliz tili o’qitish metodikasi” kitoblarida, so’zlarni o’zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarni avvalohar bir so’zning o’zida, ya’ni shakli,

semantikasi qo'llanishi bo'yicha hamda ingliz va ona tillari aloqasidan kelib chiqishini ta'kidlab o'tganlar.

Tilning frazeologik tarkibi keng ma'noga va stilistik bo'yoqlarga ega. Frazeologiya ko'p hollarda leksikologiyaning bir bo'limi sifatida qaraladi. Chunki frazeologizmlar tildagi so'zlarning ekvivalentlari hisoblanib, leksikologiya esa tilning lug'aviy tarkibini tashkil etuvchi so'zlar va ularning ekvivalentlarini o'rganuvchi dissiplina deb ataladi. Ba'zan leksika yoki stilistika kiritiladi. Frazeologizmlar bilan so'zлarni butunlay ekvivalent sifatida qarash yaramaydi. Frazeologizmlar hamda so'zlarning tarkibiy tuzilishi va ma'nolarida juda ko'p farqlanish alomatlari mavjud bo'lib, ularning morfologik va sintaktik funksiyalari ham turlichadir. Tarkibiga ko'ra so'zlar yaxlit birikkan shaklda hosil bo'ladi. Frazeologizmlarning har ikki semantik turi frazeologik butunlik va frazeologik chatishma xam o'z komponentlarining ma'no jihatidan ulanib ketishi, leksik tarkibning ko'pgina o'rnlarda morfologik va sintaktik jihatdan birikuvini turg'unligi bilan izohlanadi. So'z birikmali va gaplarning komponentlari esa semantik jihatdan ancha erkinlikka ega. Shu tufayli frazeologizmlar turg'un birikmalar, so'z birikmalar va gaplar esa tarkibiga ko'ra erkin birikmalar deb yuritiladi. Odam nomlari bilan bog'lik ya'ni onomastik komponentli frazeologik birliklar guruhini alohida ta'kidlash zarur. Bu guruh ichida quyidagicha uchta bo'limni ajratib ko'rsatish mumkin.

- 4) Familiyalar bilan bogliq bo'lgan frazeologik birliklar
- 5) Ismlar bilan bog'liq bo'lgan
- 6) Ism va familiyalar bilan bog'liq bo'lgan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ingliz tili frazeologik birikmalarini o'qitishdagি qiyinchiliklarni o'rganib chiqish maqsadida, ularni to'rt guruh bo'yicha tasniflab chiqdik.

1) Birinchi guruh o'zida internatsional iboralar, til o'rganuvchilar o'zlashtirishlarida qiyinchilik va interferensiyalarni keltirib chiqarmaydigan frazeologik birliklar kiradi. Ular til o'rganuvchilar uchun tanish yoki o'z ona tillarida uchraydi. Masalan, Achilles hell, flat broke, right now, as for me, hose-wife.

2) Ikkinci guruhnini xarakterlovchi belgi – bu ularning shakl va semantikasiga ko'ra faqat u yoki bu tilga tegishli bo'lishi. Masalan, to leave school – matabni bitirmoq, beat the band – jon-jahdi bilan ishga kirishmoq. Bu yerda iboralarning shakl ko'rinishi nazarda tutilib, ingliz tili frazeologik birliklari fe'l bilan boshlangan. O'zbek tilida esa ular ot bilan boshlangan bo'lib, fe'l bilan tugallangan: big fish – obro'li, katta lavozimdagи shaxs. Bu ikki iboralarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda semantic ma'no nazarda tutilib, faqat ingliz tilida uchrashi bilan xarakterlanadi. Big fish iborasi o'zbek tilida yuqori lavozimdagи kishilarga nisbatan qo'llaniladi.

3) Uchinchi guruh iboralari har ikki tilda uchraydi. Ular ba'zi bir qirralarda o'xhash va ba'zi bir qirralarda farq qiladi. Masalan, Cry over spilled milk – so'nggi pushaymon o'zingga dushman, give a ring – sim qoqmoq.

Keltirilgan misollardan ko'riniib turibdiki, ular asosan shakl jihatidan farq qilinib, ma'no jihatidan o'xhash. Cry over spilled milk iborasining to'g'ridan to'g'ri tarjimasi "toshib ketgan sut ustida yig'lamoq" ma'nosini beradi. Bu ma'no o'zbek tilidagi "so'nggi pushaymon o'zingga dushman" iborasiga to'g'ri keladi. Ammo, shaklan tuzilishi o'zaro farq qiladi. Shu jihatdan ularni qo'llashda til o'rganuvchilar tomonidan xatoliklarga yo'l qo'yish holatlari uchrab turadi va bu holat turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

4) To'rtinchi guruhning asosini ko'p ma'nolilik xususiyati tashkil etadi. Bunda ingliz tilidagi ba'zi iboralarning o'zbek tilidagi nisbatan polisemantiklik hola ti kuzatiladi. Masalan, all thumbs – o'ng'aysizlik, omadsiz kun, chap yonda turmoq.

Ko'rib chiqilgan ingliz tili frazeologik birikmalarini aniq bir ibora bilan belgilab bo'lmaydi. Bu kabi iboralar ham til o'rganuvchilarining o'zlashtirishlarida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ingliz tili frazeologik birikmalarini o'rganish va o'zlashtirishdagi xatoliklar va qiyinchiliklarning oldini olish maqsadga muvofikdir. Ularning oldini olish maqsadida til o'rganuvchilarga shu kabi frazeologik birliklarga xos xarakteristikalarini, ingliz tili iboralarning avvalom bor ma'nosining qo'llanilishi holatlarini tushuntirish lozim. Bu yerda albatta, ingliz va o'zbek tillarining turli sintalitga turli tillar oilasiga tegishli ekanligini va shu asosiy faktor ta'sirida ularning frazeologik qatlamlari ham turli situatsiya, kontekstlarda turlicha konsept va obrazlar bilan ifodalanilishi o'rinni ekanligini ta'kidlashni unutmaslik zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Ilmiy adabiyotlar.

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" "Ma'naviyat", 2011
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", T., 2008
3. I.A.Karimov "On measures to further improvement of foreign language learning system" Xalq so'zi December 10, 2012.
4. Амосова Н.Н. Основ английской фразеологии Л., 1963.
5. Арнольд И.В. The English Word. М., 1986.
6. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. М., 1957.
7. Бархударов Л. С., Штелинг Д. А. Грамматика английского языка. М., 1963.

7. Bo'ronov J. Hoshimov O'. "Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi". O'qituvchi. Toshkent. 1975.
8. Bo'ronov J, Hoshimov O'. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent 1974.
9. Barabash: A Guide to better grammar. M.,1975.
10. B.B.Виноградов. Фразеология современного английского языка. М., 1972.
11. Ганшина М.А. Практическая грамматика английского языка.М., 1964.
12. Gordon E.M. Krilova I.P. A Grammar of Present-day English. M., 1974.
13. Ильиш Б.А. Structure of Modern English. M., 1959.
14. Иртеньева И.Ф. Грамматика современного английского языка. М., 1956.
15. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., Уқитувчи, 1992.
- 16.Маматов Э.А. Хозирги замон узбек адабиётида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент., 1991.
- 17.Менглиев Б. Хозирги узбек адабий тили. Карши: «Насаф», 2004
18. Kaushanskaya V.L. Kovner R.L. A grammar of the English language. M.,1973.
- 19.Качалова К. Н. Грамматика английского языка. М. 1964.
20. Karsakov A. The use of tenses in English Lvov University press. 1969.
- 21.Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1986.
- 22.Ralph B. Long A.Grammar of Contemporary English. Chicago., 1961.
- 23.Starshimova E.K. Vasiliyeva M.A. Practical grammar of English. M., 1975.
- 24.Jesperson O. Essentials of English Grammar. London.1953.
- 25.Смирницкий А.И. Морфология английского языка. М. 1957.
- 26.Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. М., 1957.
- 27.Содиқов А. Абдуазизов А. Ирисқұлов М. Тилшуносликка кириш Т. «Уқитувчи», 1981.

Foydalaniman badiiy adabiyotlar.

1. Buck P.S. Come my Beloved. L.1980
2. Christie A. Selected stories. M., 1976
3. Cronin A. The Citadel. M., 1965.
4. Dickens Ch. The Chimes. M., 1980.
5. Dickens Ch. Great Expectations. L., 1987.
6. Gardner E.S., "The Case of Runaway", M., 1977
7. Guedalla P., "Palmerston". M.1976
8. Feminar Cooper "The spy" Moscow 1975.
9. Hewett D. "Bobbin Up". M.,1980

10. Hill S.. “The Blue Niking” New York 2001.
11. John Steinbeck “The Grapes of Wrath” Moscow 1978. 329 bet.
12. J.K.Jerome, Paul Kelver, book I, Ch. VIII)
13. Joynich E.L. The Gadfly. M., 1965.
14. James P. D. “Death in haly orders” New York 2001.
15. Mansfield K. Selected stories. M., 1962.
16. Maugham W. S. Complete short stories. M., 1985
17. Priestley J.B., “Festival”. Part III. M. 1978
18. Sayers D.L., “Have his Carcase”, L., 1982
19. Th. Dreiser, “An American Tragedy”

Lug'atlar:

1. Axmonova O.S. “Slovar lingvusticheskix terminov” M., 1966
2. Axmanova O.S “ Rusko – angliskiy slovar ” M., 1987
3. Coonin A.V. “ English-Russian phraseological dictionary”
4. Myuller B. K., “ Anglo russkiy slovar ” M., 1987
5. Hornby A.S. “ Oxford student’s dictionary of current English ” ox.un.press 1995
6. The Oxford English Dictionary in 12 volumes. Oxford, 1977.

Internet saytlari:

www.google/phraseology.
[www. phraseology in English](http://www.phraseology.in.English).